



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**2021- yilda  
Toshkent viloyatida turizm va dam olish  
rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**



Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo'lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramay) iqtisodiy samaradorlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan bo'lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan.

Biroq, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ'ib etishda ham samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo'lib, bir ma'noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko'p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko'ra har xil bo'lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo'lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo'nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi roliga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda bularning barchasi turizmning o'ziga xos belgisidir. Faoliyatning turizm sektori qo'shilgan qiymatning eng yuqori ko'rsatkichiga erishishga imkon beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda.





## Toshkent viloyatida turizm va dam olish sohasida rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari

Turistik faoliyatni amalga oshiradigan tashkilotlar



Zangiota t. - 1 ta




Qibray t. - 1 ta

Parkent t. - 1 ta

Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Toshkent viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 3 tani tashkil qilib, 2021- yilda ular tomonidan 4502 nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi.

## 2021- yilda turistik firma va tashkilotlarning faoliyati

■ 2021 yil



2021- yilda Toshkent viloyatiga turistik firmalar tomonidan 4495 ta fuqarolar qabul qilingan, shundan 120 nafar chet el fuqarolariga xizmat ko'rsatilgan bo'lib, qolgan 4375 nafari O'zbekiston fuqarolarini tashkil etadi



## 2021- yilda huhudlar bo'yicha sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni

Toshkent viloyatida 2021- yilda 7697 ta sayyohlik yo'llanmasi sotilgan

2021- yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmasi qiymati 947828 ming so'm

Yo'llanmalar soni

Zangiota  
29 ta


Qibray  
7668 ta



## Turistik firma va tashkilotlar xodimlari soni

Toshkent viloyatida 2021- yilda turistik firma va tashkilotlar xodimlari soni 45 nafar bo'lib, eng ko'pi Qibray tumanida 29 ta, Bo'stonliq tumanida 10 ta, Zangiota tumanida 3 ta. Eng kami Ohangaron shaharda 2 ta, Chirchiq shahrida 1 ta.


jami (o'rindoshlarsiz)



2021- yilda jamoaviy joylashtirish vositalari soni birlikda



## Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalar faoliyati



1 yulduzli



2 yulduzli



3 yulduzli




toifaga ega  
bo'lmaganlar




## 2021- yilda safar maqsadlari bo'yicha mehmonhonalarga joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi

Ta'til, bo'sh vaqt va dam olish	Do'stlar va qarindoshlardan habar olish	Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik	Davolanish uchun	Ziyorat qilish	Boshqa shaxsiy maqsadda	Ish yuzasidan va kasbga oid maqsadda
34665 kishi	5932 kishi	1234 kishi	2220 kishi	4104 kishi	12993 kishi	22272 kishi

Hududlar bo'yicha taqsimlanish





## Turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi



Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, 1–3 kun tunab qolganlar 93,1 %, 4–7 kun tunab qolganlar 3,6 %, 8–28 kun tunab qolganlar 3,1 %, 29–91 kun tunab qolganlar 0,1 %, 92–365 kun tunab qolganlar 0,1 %ni tashkil etgan.

## Mehmonxona va shunga o'xshash joylarda xodimlar taqsimlanishi



Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi  
Tel.: (71) 202-86-80